

### G'ARB ADABIYOTSHUNOSLIGIDA NAVOIY DAHOSI

**Shahnoza Rahmonova,**  
*O'zR FA O'zbek tidi, adabiyoti va folklori instituti kichik ilmiy xodimi*

**Annotatsiya.** Maqolada Navoiy ijodining G'arb adabiyotshunosligida o'rganilishiga doir o'ta muhim ma'lumotlar jamlangan. Aytish joizki, maqola o'tmishdan to bugunga qadar davom etib kelayotgan tadqiqotlar va tarjimalar muhokama qilingani ham ular bir qancha misollar bilan dalillangani bilan diqqatga sazovor.

**Kalit so'zlar:** Navoiy, navoiyshunoslik, taraqqiyot, tadqiqot, tarjima, qo'lyozma.

**Annotation.** The article discusses the importance of Navoi's work in Western literary studies. It provides an overview of the research and translations that have been conducted over time, and it highlights several examples.

**Key words:** Navoi, Navoi studies, development, research, translation, manuscript.

**Аннотация.** В статье рассматривается значение творчества Навои в западном литературоведении. В нем представлен обзор исследований и переводов, которые проводились с течением времени, а также приведены несколько примеров.

**Ключевые слова:** Навои, навоиведение, исследование, перевод, рукопись.

Alisher Navoiy jahon adabiyotining daho so'z san'atkoridir. Mutaffakir shoir o'zidan boy she'riy, nasriy va ilmiy meros qoldirdi, bu merosning hajmi, «Lison ut-tayr» dostonida shoirning o'zi ta'kidlaganiday, 100 ming baytdan oshadi. Uning boy adabiy merosi nafaqat yurtimiz, balki xorijda ham keng tadqiq etilib, navoiyshunoslik fani yanada taraqqiy etayotgani ham ma'lum. Adabiyotshunos M.Xolbekovning yozishicha, g'arb adabiyotshunoslari Navoiy asarlari bilan XVI asrdayoq tanish edilar, ta'sirlangan edilar. Tabrizlik arman yozuvchisi Xristafor Armaniyning Xusrav Dehlaviyning "Hasht bihisht" va Navoiyning "Saba'i sayyor" dostonlari asosida yaratilgan va 1719 yili frantsuz, 1766 yilda golland tillariga o'girilgan "Sarandib shoxi uch yosh o'g'lonining ziyorati" asari buning yaqqol misrlidir [1].

Fransuz sharqshunosi Bartelemi de Yerbelo de Molenvil Fransiyaning "Sharq kutubxonasi yoki Sharq xususidagi zaruriy bilimlariga oid hammabop lug'at"iga kiritilgan "Alisher" maqolasida ulug' shoirning tarjimai holi yoritilgan. Mazkur kitobda "Navoiy" sarlavhasi ostidagi yana bir maqola uchraydiki, unda "Xamsa" haqida bahs boradi. E'tiborlisi, bu ikki kichik tadqiqot G'arbda mutaffakir shoir haqidagi ilk ilmiy asarlardir [2, 99]. Nemis olimi Hammer Prurgshtalning "Nafis fors nutq san'ati" (Vena, 1818) kitobida Navoiy hayoti va ijodi haqida atroflicha ma'lumot berilgan. 1841 yili Parijda fransuz sharqshunosi Etyen Katremer Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn va "Tarixi mulki Ajam" asarlarini (qisqartirilgan holda) "Sharqiy turk adabiyoti xrestomatiyasi" kitobida chop etdi.

Fransua Alfons Belen "Alisher Navoiy tarjimai holi va adabiy hayotiga oid ma'lumotlar, uning asarlaridan olingan parchalar ilovasi bilan" deb nomlangan ikki

bo'limdan iborat maqolasida dastlab shoir hayoti va ijodi haqida fikr yuritgan. Tadqiqotining ikkinchi qismida “Majolis un-nafois” va “Xamsat ul-mutaxayyirin” asarlarining asl nusxasidan parchalar bilan birga frantsuz tilidagi tarjimalari, izohlari berilgan [3, 175-278]. Belenning «Mir Alisher Navoiyning fazilatlarini, estetik va falsafiy qarashlari» (1866 y.) maqolasida “Mahbub ul-qulub” asariga to'xtalgan, unda 90 dan ortiq izoh keltirilgan [4, 523-552].

Belen yurtida XX asrda ham navoiyshunoslik borasidagi izlanishlar shiddati so'nmadi, desak yanglishmaymiz. 1900 yilda nashr etilgan Sh.Sheferning “Arab, fors va turkiy tillardagi qo'lyozmalar majmuasi katalogi”da Navoiy qalamiga mansub asarlarning 16 ta qo'lyozma nusxasiga tegishli ma'lumotlar keltirilgan. Edgar Bloshe esa “Milliy kutubxonada saqlanayotgan turkiy qo'lyozmalar katalogi” (“Les enluminures de manuscrit orientaux de la Bibliotheque National. Paris” 1926) maqolasida Navoiyning 35 ta qo'lyozma nusxasini tavsif etadi.

Britaniya muzeyida ishlagan shvetsariyalik sharqshunos olim Charl Per Anri Rayo faoliyati davomida ingliz sharqshunos olimi Uilyam Kyureton (1808–1864) tomonidan boshlangan “Sharq qo'lyozmalari katalogi”ni 1894 yilda yakuniga yetkazadi. U “Turk qo'lyozmalari katalogi” ustida ham ish olib borgan. 1888 yilda izlanishlarining samarasini nashr qildiradi, olim unda Britaniya muzeyidagi Alisher Navoiy asarlari qo'lyozmalarining tavsifini bayon qilgan [5, 53].

Sharqshunos Yan Shmidt “Manchesterning Jon Raylends universiteti kutubxonasidagi turk qo'lyozmalari katalogi”ning “Islomiy qo'lyozmalar va kitoblar” bo'limida (“Islamic Manuscripts and Books” Volume2) “Xamsa” qo'lyozmasiga tegishli izohlarni yoritgan. Unda Alisher Navoiy hayoti va ijodiga alohida to'xtaladi. Olim Arnu Vroleyk ham kitobga Niderlandiyaning Leyden universiteti kutubxonalarida saqlanayotgan Navoiy asarlari qo'lyozmalariga oid bir qancha izohlarni kiritgan [6, 75].

Buyuk bobokalonimiz ijodiga qiziqish nafaqat Yevropa, balki Amerika va Kanadada ham ortib bormoqda. Jumladan, adabiyotshunos Maria Yeva Sabtelni xonim Navoiy yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni tadqiq etgan. Olim Sharq adabiyotida mashhur bo'lgan ko'plab arab, fors va turkiy manbalar, shu jumladan, “Majolis un-nafois”ning forscha tarjimasini, Zayniddin Vosifiyning “Badoe' ul-voqea”, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”, Muhammad Haydar Dug'lotning “Iqtibos az Tarixi Rashidiy”, Som Mirzoning “Tuhfayi somi”, Bobur Mirzoning “Boburnoma”, Xondamirning “Tarixi Habib us-siyar” kabi asarlarni o'rganish orqali Sulton Husayn Boyqaroning qirq yil davomida Hirot davlatchilik siyosati va madaniy hayotida tutgan o'rni, Mir Alisher Navoiyning yuksak insonparvarlik qiyofasini atroflicha ochib berishga harakat qilgan. Uning tadqiqoti

2014 yilda Kaliforniya universiteti professori Mark Tutonni Navoiy “Xamsa”si bo‘yicha doktorlik ishini yozishga ilhomlantirgan [7, 121-148].

Massachusettslik adabiyotshunos, yozuvchi va shoir Dennis Deyli ko‘p yillik izlanishlari tufayli shoirning g‘azallaridan bir qanchasini ingliz tiliga tarjima qiladi. “Cervena Barva Press” nashriyoti tomonidan chop qilingan “Alisher Navoiyning yigirma bir g‘azali” kitobi Amerika Qo‘shma Shtatlarida e‘tirof qozongan. Ko‘plab adabiyotshunoslar mazkur asarga o‘z fikrlarini matbuot va elektron nashrlar orqali bildirishadi. Ular mashhur shoir Judi Kats-Levin ham bor. Shoir mazkur kitobga taqrizni, *The Boston Area Small Press and Poetry Scene* blogida 2017 yilning 30 iyunida e‘lon qiladi. Unda amerikalik shoir va tanqidchi Levin Navoiy shaxsiyati-yu she‘rlariga yuksak baho berib, o‘ziga xos nodir iste‘dod sohibi bo‘lganligi aytgan [8].

Shu taxlit fikrlar amerikalik islomshunos olim Barri Xobermanning “Turklarning Choseri” (“Chaucer of Turks”) maqolasida ham uchraydi. U Navoiyni Sharqning uyg‘onish davri asoschilaridan biri sifatida ta‘riflaydi. Buyuk so‘z san‘atkorining Sharq mumtoz adabiyotidagi o‘rnini ingliz shoiri Jeffi Choser bilan taqqoslaydi.

Kanadalik Harri Dik O‘zbekistonga kelib “Lison-ut-tayr”ning nasriy bayonini ingliz tiliga tarjima qilgan. U Navoiyni “Dunyoni ma‘naviy tanazzuldan qutqara oladigan ko‘ngil bog‘ining bog‘boni” deya e‘tirof etadi. Dikning urinishiga qadar Umar Hayyom ruboiylarini inglizchaga o‘girib, mashhurlikka erishgan ingliz shoiri Edvard Fitsdjerold “Lison ut-tayr”ni inglizchaga o‘giran. Bu tarjima asar 1899 yilda Bostonda chop etilgan. Mutarjim haqidagi qaydlarda Farididin Attorning “Mantiqut ut-tayr” asaridan 1500 misraga qadar tarjima qilgani ko‘rsatilgan. Qiziq jihati shundaki, Fitsdjerold “Mantiq ut-tayr”ni “Qushlar mashvaratidagi qush nigohi” (“A Bird’s-Eye view of the Bird Parliament”) deya nomlaydi. Umuman, xorij navoiyshunosligi jadalik bilan rivojlanib bormoqdagi, buni yuqoridagi ma‘lumot-u tahlillarimiz ham ko‘rsatib turibdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Холбеков М. Ҳазрат Навоийнинг мерос Францияда// <https://ziyouz.uz>
2. Barthélemy d'Herbelot de Molainville. Alicher. La Bibliotheque orientale. – Paris, 1697, 99-б
3. Belin F.A. Notice biographique et littéraire sur Mir Ali-Chir Nevaii, suivie d'extraits tirés des œuvres du même auteur // Journal Asiatique. № 17. 175-238-бетлар
4. Belin F.A. Moralistes orientaux. Caractères, maximes et pensées de Mir Ali Chir Névâii // Journal asiatique. № 7, 1866. P. 523-552; Journal asiatique. № 8, 1866.
5. Сотимов У. Инкордан иқроғача. – Урганч, 1994. – 138 б.

6. Jan Schmidt. A Catalogue of the Turkish Manuscripts in the John Rylands University Library at Manchester. Islamic Manuscripts and Books. – Laiden, Boston, 2011. P-378.
7. Maria E. Subtelny. “Art and Politics in Early 16th Century Central Asia” // Central Asiatic Journal. 27/1-2, 1983. pp 121- 148.
8. Judy Katz-Levine. Twenty-One Ghazals Alisher Navoiy, Translated from the Uzbek by Dennis Daly <https://dougholder.blogspot.com/>